

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

XAMROYEV GAYRAT RUSTAMOVICH

**MAXSUS AVTOTRANSPORT VOSITALARINI TOVARLAR
NOMENKLATURASI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRILGAN
TASNIFFLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi
05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni
avtomatlashtirish va boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**UO'K 656.135 + 428(5U)Ya7 +
UO'K 66.012**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

Xamroyev Gayrat Rustamovich

Maxsus avtotransport vositalarini tovarlar nomenklaturasi asosida
avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini ishlab chiqish..... 3

Хамроев Гайрат Рустамович

Разработка автоматизированной системы классификации специальных
транспортных средств на основе товарной номенклатуры 21

Khamroev Gayrat Rustamovich

Development of an automated classification system for special vehicles based on
the commodity nomenclature 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

XAMROYEV GAYRAT RUSTAMOVICH

**MAXSUS AVTOTRANSPOST VOSITALARINI TOVARLAR
NOMENKLATURASI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRILGAN
TASNIFFLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi
05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni
avtomatlashtirish va boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T2847 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.andu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Karimkulov Kurbonkul Mavlankulovich
texnika fanlari doktori, professor

Sevinov Jasur Usmonovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abduganiyev Baxtiyor Yormamaxamatovich
kimyo fanlari doktori, professor

Temerbekova Barnoxon Maratovna
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «17» 10 soat 10 ⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko‘chasi, 129. Tel.: (+99877) 223-88-30, faks: (+99871) 223-84-33, e-mail: abshax@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko‘chasi, 129. Tel.: (+99877) 223-88-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «5» 10 kuni tarqatildi.

(2024 yil «5» 10 dagi 40 raqamli reestr bayonomasi).



Sh.X.Abdulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash rais o‘rinbosari, k.f.d., professor

M.M.Mo‘minjonov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash kotibi, k.f.d., dotsent

M.M.Xojimatov

Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘nggi vaqtarda maxsus avtotransport vositalarining yangi turlarini ishlab chiqarilishi, uning bajaradigan vazifasi hamda tashqi va ichki dizayniga kiritilayotgan o‘zgarishlar natijasida mos tovar kodini aniqlash orqali xalqaro iqtisodiy munosabatlarda erkin harakatlanishi, huquqiy himoyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu sohada tashqi iqtisodiy faoliyatning tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) asosida tovar xususiyatlarini tasniflash tizimini ishlab chiqish va ushbu jarayonni avtomatlashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan TIF TN asosida maxsus avtotransport vositalarining bajaradigan vazifasi, qo‘srimcha maxsus jihozlar o‘rnatalishi hamda texnik parametrlarini tasniflash, identifikatsiyalash, mos tovar kodini bojxona maqsadlari uchun aniqlashning samarali usul va algoritmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda maxsus avtotransport vositalarini tovarlar nomenklaturasi (TN) asosida avtomatlashtirilgan tasniflash algoritmini ishlab chiqish va bojxona nazorati jarayonlarida tadbiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ma’lumotlar tahlilidan foydalanish orqali aniqlikni oshirish, iqtisodiy xavfning miqdorini aniqlash va bojxona nazorati muvozanatini ta’minalash usullarini takomillashtirish muammolarini yechish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan TN asosida maxsus avtotransport vositalarini tasniflashning matematik va algoritmik ta’mintoni, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida maxsus avtotransport vositalarini TIF TN bo‘yicha avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda avtotransport vositalarini bojxona chegarasi orqali kesib o‘tishida bojxona tartiblarini soddallashtirishga katta ahamiyat berilib, xalqaro savdo aylanmasiga qulay shart-sharoitlar yaratish, tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) ishtirokchilari uchun bojxona rasmiylashtiruvchi jarayonini tizimli soddallashtirish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilgan. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “Jahon bozorlaridagi vaziyatdan kelib chiqib, ichki bozorda talab yuqori bo‘lgan tovarlarni xorijdan olib kirishda ularga nisbatan maqbul bojxona stavkalarini qo‘llash”¹ yuzasidan vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan TIF ishtirokchilariga qulay va tezkor usullarda xizmat ko‘rsatish maqsadida tovarlarni elektron bojxona rasmiylashtiruvchi jarayonini avtomatlashtirish, tovar xususiyatlarini TIF TN asosida to‘g‘ri va aniq tasniflash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma’muriyatichilagini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari va 2018-yil 25-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadallashtirish chora-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

tadbirlari to‘g“risida”gi PQ-3983-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimiyoiy texnologiyalar va nanotexnologiyalar”, V. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Maxsus avtovansport vositalarini TIF TN asosida tasniflash usullari va algoritmlari hamda ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan tasniflash tizimi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarga doir so‘nggi yillardagi ilmiy-texnik adabiyotlar tahlili ushbu sohada ahamiyatli darajadagi nazariy va amaliy natijalarga erishilganligi haqida dalolat beradi. TN asosida avtomatlashtirilgan tasniflash algoritmlarini ishlab chiqish muammolariga bag‘ishlangan ko‘pgina ilmiy ishlar amalga oshirilgan, umumnazariy konsepsiylar ishlab chiqilgan va yildan yilga amaliy vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilgan ilmiy ishlar soni ortib bormoqda.

TIF TN asosida maxsus avtovansport vositalarini identifikatsiyalash va tasniflash metodologiyasining rivojiga hamda tovarlarini rasmiylashtirilish jarayonlarini avtomatlashtirish yo‘nalishlarida ko‘plab xorijiy olimlar, jumladan, Ye.I.Andreyeva, G.I.Gladov, S.Ya.Gamidullayeva, S.V.Kotovich, M.A.Nikolayeva, V.O.Nikiforov, M.D.Bezborodko, O.G.Strikova, V.A.Stukanov, A.P.Uxanov, G.Yu.Fedotova, A.M.Sikunov, S.K.Shestopalov va boshqalar hamda mamlakatimiz olimlari, jumladan, N.R.Yusupbekov, Igamberdiyev X.Z., I.R.Asqarov, I.X.Siddikov, Sh.M.Kirgizov, A.P.Mapaximov, A.A.Akilov, X.Isakov, K.M.Karimqulov, G‘.X.Hamroqulov, A.A.Saidov, B.Yo.Abdug‘aniyev, B.M.Azimov, T.F.Bekmuratov, O.Sh.Dadabayev va boshqalar o‘zlarining xissalarini qo‘shishgan.

Shu bilan birga, tovarlarni tasniflash to‘g‘risidagi ilmiy nashrlarda, ularning maqsadi sifatida tovarlarni tasniflash usullari bo‘yicha faqat ayrim muammolarini hal qilish bo‘yicha ilmiy yechimlar berilgan. Amaliyot manbalaridan olingan ma’lumotlarning tahlili, ushbu tovarlarni TIF TN bo‘yicha tasniflash uchun tovarlarni kimiyoiy tarkibini o‘rganishni talab qiladi. Maxsus avtovansport vositalarini tovar xususiyatlarini tasniflash muammolarining sabablarini tizimlashtirish va ularni minimallashtirish usullarini izlash bo‘yicha yetrali darajada tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shuningdek, ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha tadqiqotlar sohasida erishilgan yutuqlarga bojxona yuk deklaratasiysi (BYuD) 31-grafasini to‘ldirishda maxsus avtovansport vositalari texnik parametrlerining takroriy kiritilishi hamda maxsus avtovansport vositalari texnik parametrleri bo‘yicha TIF TN asosida avtomatlashtirilgan tasniflash tizimi jarayonini boshqaradigan identifikatsiyalash algoritmi va matematik modellashtirish algoritmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bundan tashqari, mamlakatimizga chetdan import qilinadigan maxsus avtovansport vositalarining tovar tavsifini identifikatsiyalash orqali TIF TN

bo‘yicha kod raqamlarini to‘g‘ri aniqlash, bojxona statistikasini tezkor to‘g‘ri olib borish, bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri undirilishi imkoniyatini yaratib beradi. Yuqorida aytib o‘tilganlarni inobatga olgan holda, maxsus avtotransport vositalarini tovarlar nomenklaturasi asosida avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti va Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarining №OT-F4-78 – “Identifikatsion yondashuv asosida dinamik obyektlarni adaptiv boshqarish sistemalari sintezining nazariy asoslari va muntazam usullarini ishlab chiqish” mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maxsus avtotransport vositalarini tovarlar nomenklaturasi asosida avtomatlashtirilgan tasniflash algoritmlari va tizimlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

TN asosida maxsus avtotransport vositalarini tasniflash muammolari va usullarini tizimli tahlil qilish;

TN asosida maxsus avtotransport vositalarini tasniflashning matematik va algoritmik ta’minotini ishlab chiqish;

sun’iy intellekt texnologiyalari asosida maxsus avtotransport vositalarini TIF TN bo‘yicha avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini ishlab chiqish;

Respublikamizga import qilinayotgan maxsus avtotransport vositalarining TIF TN asosida tasniflash qoidalariga muvofiq deklaratsiyalanayotgan tovarlarni muayyan o‘n raqamli podsubpozitsiyada tasniflash usullarini ishlab chiqish;

maxsus avtotranspot vositalarini asosiy texnik parametrlari asosida yangi tovar kodlarini ishlab chiqish;

TN asosida maxsus avtotransport vositalarini avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini ishlab chiqilgan algoritmlari va hisoblash sxemalarini BYuDni rasmiylashtirish jarayonlarida joriy etish.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida import qilinadigan maxsus avtotransport vositalari, TIF TN 8704 tovar pozitsiyasining boshqa subpozitsiyalari bo‘yicha, BYuDning 31-, 33-grafalari, O‘zbekiston Respublikasi TIF TN (2022-yil versiya) olingan.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekiston Respublikasi TIF TNning 8704 tovar pozitsiyasiga kiruvchi maxsus avtotransport vositalari, tasniflashni identifikatsiyalash, perseptron va tavsiflovchi usullari hamda bojxona ekspertizasini to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiluvchi tezkor usullaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, identifikatsiyalash, lingvostatistik usullar, sun’iy intellekt nazariyasi, TIF TNni talqin etishning 6 ta asosiy interpretatsiya qoidalari bo‘yicha tasniflash usullari, tasniflash sifatini baholash, perseptron va tavsiflovchi, toifalash kabi usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tovarlarni rasmiylashtirish jarayonida tovar kodi va boj stavkalarining o‘zaro mosligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirishda TIF TNning 8704 tovar pozisiyasiga tegishli bo‘lgan maxsus avtotransport vositalarini tasniflashning sodda ilmiy-metodologik asoslari yaratilgan va samarali ekspress usullari sifatida 3 bosqichli toifalash usullari yaratilgan;

eksport qilinayotgan tashqi iqtisodiy faoliyatdagi 8704 tovar guruhidagi maxsus avtotransport vositalari uchun yangi xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilgan;

axborotning muhim belgilarini aniqlashda atama-belgilarning paydo bo‘lishining aprior ehtimoli haqidagi ma’lumotlarga asoslangan lingvostatistik usullar asosida TIF TN kodini avtomatik aniqlashning matematik va algoritmik ta’minoti yaratilgan;

bojxona faoliyati tezkorligi va ish unumdorligini oshirish, inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolarni bartaraf etish imkonini beruvchi, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida maxsus avtotransport vositalarini TIF TN bo‘yicha tasniflashning texnik echimlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

BYuDning 31-grafasi uchun shakliy nazorat, mantiqiy nazorat tekshiruv usullarini qo‘llash bilan 3 bosqichli toifalash usullari BYuDning 33-grafasi tovar kodi bilan integratsiyasi avtomatlashdirilgan;

maxsus avtotransport vositalarini texnik xususiyatlarini detallashtirish orqali TIF TNning yangi milliy 1 ta o‘n xonali kod raqamlari ishlab chiqilgan;

maxsus avtotransport vositalarini texnik xususiyatlarini tasniflashda BYuDning 31-grafasida tovar tavsifi inson omili ishtirokisiz tovar kodini belgilab beradigan model asosida avtomatlashdirilgan axborot tizimi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. TN asosida maxsus avtotransport vositalarini tasniflashning matematik va algoritmik ta’minoti, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tasniflashning texnik yechim hamda usullarini ishlatilishi, zamonaviy boshqarish nazariyasining amaliy sinovdan o‘tgan usullari va algoritmlarini ishlatilishi, avtomatlashdirilgan tasniflash usullari va algoritmlarini talab darajasida yaqinligi, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalari hamda ularning o‘zaro muvofiqligi bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi, amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari faoliyatiga joriy etilganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati TN bo‘yicha maxsus avtotransport vositalarining xususiyatlari asosida tasniflash tizimi, tasniflash usullari, algoritmlari va modelini hamda milliy TN uchun yangi tovar kodlarini ishlab chiqishga asos bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati TN asosida tovar tavsifining birlamchi ma’lumotlarini identifikatsiyalashda iyerarxik va toifalash usullarining matematik, algoritmik ta’minoti va tasniflash modelini ishlab chiqish, bojxona nazoratida identifikatsiya qilishda yaratilgan yangi kodlar bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan tovar tavsifini tasniflash tizimining toifalash usullari, yangi tovar

kodlarini bojxona amaliyotida elektron bojxona rasmiylashtirishda keng qo'llanilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maxsus avtotransport vositalarini TIF TN asosida avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maxsus avtotransport vositalari TIF TNga muvofiq ayrim parametrli bir xil va aksincha bo'lgan texnik parametrlari bo'yicha unikal kod raqamlarini bir-biridan farqlaydigan mezonzlari 3 bosqichli toifalash usuli oliy ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 23 avgustdaggi 4/17-23/08-3-son ma'lumotnomasi). Natijada, tovarlarning optimal kod raqamlarini bir-biridan farqlaydigan 3 bosqichli toifalash usulida identifikasiya qilish imkonini bergen;

maxsus avtotransport vositalarining faqat siqishdan alanga oluvchi porshenli ichki yonuv dvigatel (dizel yoki yarim dizel)ga ega to'liq massasi 20 tonnadan ko'p bo'lgan yangi avtomobil-samosvallar (yo'lsizlikda ishslash uchun mo'ljallangan avtomobil-samosvallardan tashqari) uchun – 8704 23 920 3 kod raqami bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi 2023-yil 13-iyulndagi 17/05-23-0480-son ma'lumotnoma). Natijada, alanga oluvchi porshenli ichki yonuv dvigatel (dizel yoki yarim dizel)ga ega to'liq massasi 20 tonnadan ko'p bo'lgan yangi avtomobil-samosvallarni TIF TN bo'yicha to'g'ri sinflash imkonini bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan. Shuningdek, EHMLar uchun dasturiy mahsulotlarga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan ro'yxatdan o'tgan 1 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, tadqiqot natijalarining

aprobatasiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Maxsus avtotransport vositalarini tasniflash masalalari va usullari rivojining tizimli tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida TN asosida avtotransport vositalarini tasniflashning zamonaviy holati va muammolari, maxsus avtotransport vositalarini tasniflash bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar tahlili, respublikamizda maxsus avtomobillarni ishlab chiqarish sanoatining rivojlanish tarixi va ularning tasniflanishi, tadqiqotning maqsadi va vazifalarini qo‘yilishi keltirilgan.


So‘ngi yillarda ko‘plab tadqiqot ishlarda maxsus avtotransport vositalarining tasniflash bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar tahlili asosida bojxona nazorati jarayonida transport vositalarining texnik pasportlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar bilan xalqaro tashish transport vositasi raqamlangan birliklarini solishtirishning avtomatlashtirish mexanizmlari va vositalari ishlab chiqish, tovar kodlarining iyerarxik tasniflagichi bo‘lgan TIF TN bo‘yicha tovar kodini avtomatik ravishda aniqlashda ishlatiladigan usullar va tasniflash modellari hamda bir xil TIF TN kodiga ega bo‘lgan tovarlar to‘plami sinf sifatida ko‘rish, tovarlarni bojxona ko‘zdan kechirushi va bojxona ko‘rigida tasniflashning samarali matematik modelining ifodalanishi, TIF TN bo‘yicha tovarlar kodini avtomatik aniqlash uchun tasniflash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tovarlarni tasniflash bo‘yicha tovarlarni bojxona ko‘zdan kechirushi va bojxona ko‘riklar nafaqat uning bojxona-tarif pozitsiyasini aniqlash sohasida tasniflash qarorini qabul qilish, balki tovarning notarif tovarlarga nisbatan belgilangan cheklar va taqiqlarga muvofiqligini aniqlash, tovar bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilish, shuningdek, tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tayotgan subyektning tovarga nisbatan dalolatnomasini kvalifikatsiya qilish uchun ham muhimdir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, shuningdek avtomatlashtirish va boshqarishning yangi yechimlaridan foydalanib maxsus avtotransport vositalarini TN asosida tasniflash tizimini ishlab chiqishni talab etiladi. Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, bojxona faoliyati tezkorligi va ish unumdarligini oshirish, inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolarni bartaraf etish imkonini beruvchi turli yondashuvlar hamda eng istiqbolli usullari va algoritmlarini aniqlash dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “**Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasiga muvofiq maxsus avtotransport vositalarini tasniflash**” deb nomlangan ikkinchi bobida TIF TNda L, M va N toifalardagi maxsus avtotransport vositalarini tasniflash usullari, TIF TN asosida maxsus avtotransport vositalarini tasniflanishi, maxsus avtotransport vositalarini texnik parametrlari asosida tasniflash tizimini ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Tadqiqot ishimizda Yuk tashuvchi maxsus transport vositalarining tasnifi sxemasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.

Maxsus transport vositalarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borish natijasida ishlab chiqaruvchi zavodlarlar tomonidan qo‘srimcha ehtiyyot qismlarini (tashqi va ichki dizaynlarini o‘zgartirish) biriktirilishi bu transport vositasining boshqa toifasiga

tasniflanishiga olib kelmoqda. Maxsus transport vositalarining tasnifi davlat standarti bilan tartibga solinadi. Ushbu standartga muvofiq, maxsus transport vositasi - yuk va yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan, maxsus funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan transport vositasi bo'lib, unda ixtisoslashtirilgan korpus va jihozlarning mavjudligi zaruriy shart hisoblanadi.




1 - rasm. Yuk tashuvchi maxsus transport vositalarining tasnifi sxemasi

Yuqoridagi o'r ganish va tahlil natijalariga ko'ra TIF TNning 8704 tovar pozitsiyasida quyida maxsus avtotransport vositalari tovar kodi, uning texnik va o'ziga xos xarakteristikalari bog'liq ekanligini ko'rildi (2-rasm).

Tahlil natijasida jami 2019-2022 yillari 8704 tovar guruhi bo'yicha 11 ta boshqalar (prochiye) TIF TN tovar pozitsiyasi bo'yicha 8364 dona maxsus transport vositalari qiymati 286 779,7 mln AQSH dollariga teng miqdorda import qilinib, TIF TN 8704 23 910 9 kodi bo'yicha 218 941,1 mln AQSH dollari qiymati miqdoridagi transport vositasining asosan avtomobil samosval turlarining texnik

parametrlari jiddiy o‘zgarishlarsiz import qilingan. Mazkur TIF TN kod bo‘yicha 3 yil davomida jami 4731 dona transport vositasining ya’ni 3539 (74,8%) donasi samosval transport vositasi rasmiylashtirilgan. Birgina 2020 yilgi tovar aylanmasi miqdori 90558,58 mln AQSH dollarni (2187 dona avtomobil samosval) tashkil etgan.



2 - rasm. 8704 tovar pozitsiyasida maxsus transport vositasining tovar kodini TIF TNga muvofiq belgilash keta-ketlik strukturası

Dissertatsiyaning “**Tovarlar nomenklaturasi asosida maxsus avtotransport vositalarini avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini ishlab chiqish**” deb nomlangan uchinchi bobida maxsus avtotransport vositalarini bojxona nazoratidan o‘tkazishning axborot ta’minoti, TN asosida maxsus avtotransport vositalarini tasniflashning matematik va algoritmik ta’minoti, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida maxsus avtotransport vositalarini TIF TN bo‘yicha tasniflashning texnik yechimlari, tasniflash jarayonning neyron-to‘rli modelini ishlab chiqish, TN haqidagi ma’lumotlarning ishonchliligin oshirish usullari ishlab chiqilgan va ularni amalga oshirish bayon etilgan.

Maxsus avtotransport vositalarini tasniflashda uchraydigan xatoliklarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, ushbu xatoliklar tovarlarni identifikatsiyalashni ta’minlab beradigan algoritmk va dasturiy ta’minotning zaifligi sababli yuzaga keladi. Ushbu muammoni xal qilish uchun tovar kodlarining iyerarxik tasniflagichi bo‘lgan TIF TN bo‘yicha tovar kodini avtomatik ravishda aniqlashda ishlatiladigan usullar va tasniflash modellari ko‘rib chiqamiz.

Tasniflash jarayoni quyidagi shakldagi algebraik tizim bilan ifodalanishi mumkin:

$$\langle L, K, S, R_k, f \rangle, \quad (1)$$

bu yerda: L – tasniflanadigan obyektlar to‘plami; K – sinflar to‘plami; S – sinf tavsiflari to‘plami; R_k – $K \times S$ munosabati quyidagi belgilarga ega: har qanday

sinf bitta tavsifga mos keladi, teskari talab esa shart emas; $f : L \rightarrow K$ ko‘rinishdagi tasniflash jarayoni. f tasniflash tartibida $S_l \in S$ va $S_i \in S$ yaqinligini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini beruvchi $E : S \times S \rightarrow [0;1]$ ko‘rinishdagi o‘xshashlik o‘lchovidan foydalanadi, bu yerda S_l tavsifi tahlil qilinayotgan obyektni ifodalaydi, S_i esa bir nechta sinfdir.

Tasniflash tartibi f harakatlari $S_l \in S$ tasvirida tahlil qilinayotgan l obyektining tavsifini tuzish, S_l tavsifining i sinflarining tavsiflari bilan yaqinligini baholash ($r(S_l, S_i)$ ni hisoblash) quyidagicha:

$$r(S_l, S_i) = \frac{(S_l, S_i)}{\sqrt{|S_l| \times |S_i|}}. \quad (2)$$

Oxirgi xulosa yoki chegara qiymati r_{\min} bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi, shuning uchun obyekt $r(S_l, S_i) > r_{\min}$ barcha sinflarga K_i tegishli yoki ko‘rsatilgan barcha sinf natajilaridan $r(S_l, S_i)$ maksimal qiymat tanlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, avtomatik tasniflash masalasini hal qilish uchun obyektlarning tavsifini tuzish kerak. Ko‘pgina tasniflash algoritmlari obyektlarning belgilarni vektorlaridan tashkil topgan “belgi-obyekt” matritsasi bilan kirish sifatida ishlaydi. Belgilar maydonining o‘lchamini kamaytirishda muhim axborotning ahamiyatiga ega belgilarini aniqlash uchun atama-belgilarning paydo bo‘lishining aprior ehtimoli haqidagi ma’lumotlarga asoslangan lingvo-statistik usullardan foydalanish quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$MI(b_k, K_i) = \sum_{b_k \in \{0,1\}} \sum_{K_i \in \{0,1\}} P(b_k, K_i) \log \frac{P(b_k, K_i)}{P(b_k)P(K_i)}, \quad (3)$$

bu yerda:

$$P(b_k = 1) = 1 - P(b_k = 0) = f_k / n_o, \quad P(K_i = 1) = 1 - P(K_i = 0) = f_i / n_o,$$

bu yerda: f_k – b_k belgilarni o‘z ichiga olgan obektlar soni; f_i – K_i sinfidan tarkib topgan obyektlar soni; n_o – barcha obyektlar soni; $P(b_k, K_i)$ – b_k belgilari va K_i sinfining birgalikda taqsimlanish ehtimoli.

Demak, (3) da agar b_k belgilari va K_i sinfining taqsimotlari statistik jihatdan mustaqil bo‘lsa, u holda $MI(b_k, K_i) = 0$. Agar belgilari va sinfning paydo bo‘lishi o‘rtasida funksional bog‘liqlik bo‘lsa, u holda $MI(b_k, K_i)$ maksimal hisoblanadi.

Farqlanishning ko‘plab baholari quyidagi ifoda bilan berilgan belgining teskari chastotasi deb ataladigan o‘lchovga asoslanadi:

$$\omega_i = \log(n_0/f_i), \quad 0 \leq \omega_i \leq \log N_0, \quad (4)$$

bu yerda n_0 – tasniflangan obyektlarning umumiy soni; f_i – i -belgining chastotasi.

(4) ifoda butun belgilari maydonini og‘irliklari $0 \leq \omega_i < 1$, $1 \leq \omega_i < 2$, ..., $[\log N_0] - 1 \leq \omega_i < [\log N_0]$ bo‘lgan $[\log N_0]$ klasterlarga ajratadi. Shu bilan birga,

$f_i = 1$ bo‘lgan belgilar oxirgi klasterga tushadi – asosiy “tematik jihatdan aniq” belgilar klasteri va birinchi klasterda obyektlar to‘plami uchun asosiy keng tarqalgan belgilar mavjud.

Avtomatik tasniflash usullarining samaradorligini baholashda eng ko‘p qo‘llaniladigan aniqlik (p) va eslab qolish (r) bo‘lib, ular axborotni qidirish sifatini baholashda ham qo‘llaniladi. Bir nechta sinflar uchun tasniflash sifatini baholash uchun quyidagi makroo‘rtacha va mikroo‘rtacha usullari qo‘llaniladi:

$$r_{marco} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{a_i}{a_i + c_i}, \quad p_{marco} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{a_i}{a_i + b_i}; \quad (5)$$

$$r_{mirco} = \frac{\sum_{i=1}^n a_i}{\sum_{i=1}^n (a_i + c_i)}, \quad p_{mirco} = \frac{\sum_{i=1}^n a_i}{\sum_{i=1}^n (a_i + b_i)}. \quad (6)$$

bu yerda a – to‘g‘ri tasniflangan obyektlar soni; b – noto‘g‘ri tasniflangan obyektlar soni; c – noto‘g‘ri rad etilgan obyektlar soni.

(5), (6) ifodalarda eslab qolish r va aniqligi p yordamida tuzilgan tasniflash usullarining integral baholari ham mavjud. Ulardan eng asosiysi:

$$F = \frac{2rp}{r + p}, \quad (7)$$

umumiyoq quyidagicha ta’riflanadi: $F_\beta = (\beta + 1)pr / (\beta p + r)$, bu yerda $\beta > 0$ – to‘liqlik va aniqlik ko‘rsatkichlarining ahamiyatlilik nisbatini belgilovchi parametr.

O‘qitish va test to‘plamlarini shakllantirishda obyekt va sinfning vektor tasviri qo‘llaniladi.

I obyektining tavsifi quyidagi shaklda taqdim etiladi:

$$I_k = (b_{1k} \dots b_{ik} \dots b_{Dk})^T, \\ b_{ik} = \begin{cases} 1, & \text{agar } i\text{-chi belgi } k\text{-chi ob'ektga tegishli bo'lsa,} \\ 0, & \text{aks holda.} \end{cases} \quad (8)$$

Sinflarning tavsifi sifatida vektor – matritsa qatorini ko‘rib chiqamiz:

$$S = \begin{pmatrix} s_{11} & \dots & s_{1j} & \dots & s_{1D} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ s_{i1} & \dots & s_{ij} & \dots & s_{iD} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ s_{T1} & \dots & s_{Tj} & \dots & s_{TD} \end{pmatrix}, \quad (9)$$

bu yerda s_{ij} – j belgi va i sinfining yaqinlik koeffitsiyenti.

Yaqinlik koeffitsiyenti sifatida statistik ko‘rsatkichlar asosida hisoblangan o‘xshashlik ko‘rsatkichlaridan birini qo‘llash amalga oshirildi. Obyektlarni tasniflash jarayoni matritsalarni ko‘paytirishda ifodalanadi:

$$S \times I = \tilde{I} \quad (10)$$


bu yerda $\tilde{I} = \{\tilde{b}_i\}$, $\tilde{b}_i = \sum_{j=1}^D s_{ij} b_j$ vektori asl obyektni i -sinfga yaqinlik nuqtai nazaridan ifodalaydi.

(10) ifodada \tilde{b}_i dan maksimalini aniqlab, tasniflanayotgan obyektga tegishli bo‘lgan sinfni olamiz, ya’ni izlanayotgan r sinfi quyidagicha bo‘ladi:

$$r : b_r = \max_i \tilde{b}_i. \quad (11)$$

Shunday qilib, axborotning muhim belgilarini aniqlashda atama-belgilarning paydo bo‘lishining aprior ehtimoli haqidagi ma’lumotlarga asoslangan lingvostatistik usullar asosida TIF TN kodini avtomatik aniqlash hamda makroo‘rtacha va mikroo‘rtacha usullari asosida obyektning tasniflash sifatini baholashning matematik va algoritmik ta’minoti ishlab chiqilgan bo‘lib, bu TIF TN kodini identifikatsiyalashning tavsiya etilgan ta’minoti TIF ishtirokchilarining tovarlarga deklaratsiyani to‘ldirish ishlarini avtomatlashтирish imkonini beradi.

Bojxona nazorati sifati va samaradorligini oshirish, TIF ishtirokchilarining bojxona chegarasini kesib o‘tishdagi xarajatlarini kamaytirish maqsadida bugungi kunda ilg‘or texnologiyalardan biri bo‘lgan sun’iy intellekt texnologiyalarini foydalanishni talab etmoqda. Mashinali o‘qitish imkoniyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ushbu sohadagi tadqiqotning eng istiqbolli yo‘nalishi chuqur o‘qitish algoritmlarini amalga oshiradigan neyron tarmoqlarning imkoniyatlarini o‘rganishdir. Konvolyusion neyron tarmoqlarning asosiy xususiyati obyektlarning xarakterli elementar xususiyatlarini (konturlar, yoylar, yuzlar) o‘z ichiga olgan dastlabki tasvirdan kichik qismlarni ajratib olishdir. Bunday tarmoqning asosiy elementi perceptron – bir nechta ikkilik kirishlar x_1, x_2, \dots bo‘lgan va bitta ikkilik chiqishni chiqaradigan qurilma (3-rasm).



3 - rasm. Perseptron chizmasi

Ushbu matematik apparatdan foydalanilganda kirish kattaliklari $\{x_1, x_2, x_3\}$ sifatida ma’lumotlar oqimi (X_1), intensivligi (X_2) va ularning o‘zgarish tezligi (X_3) olindi. Vazn koeffitsiyentlarini o‘qitishning turli usullari mavjud. Bunda yechimni olish uchun quyidagi munosabatdan foydalanamiz:

$$y_i = y_i^{(1)} + y_i^{(2)} - y_i^{(1)} \frac{r(X, X_2)}{r(X_1, X_2)}, \quad i=1, \dots, n, \quad r(X, X_2) = \sqrt{\sum_{j=1}^m (x_j - x_j^{(2)})^2}. \quad (12)$$

Kirish kattaliklarining o‘zgarishi tasodifiy xarakterli ekanligini hamda ma’lumotlarning sust shakllanganligini hisobga olgan vazn koeffitsiyentlarini o‘qitish talab etiladi. (12) ifodada $r(X_1, X_2) = X_1$ va X_2 orasidagi masofa, $r(X, X_2) = X$ va X_2 orasidagi masofa. Perseptronning chiqishi 0 yoki 1 ga teng bo‘lib,


$\sum_j \omega_j x_j$ vazn yig'indining qandaydir chegara qiymatidan kichik yoki katta bo'lganligi – perseptronning parametri bo'lgan haqiqiy son bo'lganligi bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$\text{chiqish} = \begin{cases} 0, & \text{agar } \sum_j \omega_j x_j \leq \text{chegara}, \\ 1, & \text{agar } \sum_j \omega_j x_j > \text{chegara}, \end{cases} \quad \text{yoki} \quad \text{chiqish} = \begin{cases} 0, & \text{agar } \omega x + b \leq 0, \\ 1, & \text{agar } \omega x + b \geq 0, \end{cases}$$

bu yerda b – siljish (bo'sag'a).

Aniqroq qaror qabul qilish uchun perseptronlar bir necha qatlamlardan iborat murakkab tarmoqqa birlashtiriladi. Neyron tarmoqlarga asoslanib, dasturchi aralashuvlari idrok etuvchilarining vazni va siljishi avtomatik sozlay oladigan o'qitish algoritmlarini ishlab chiqishi mumkin.

Mashinali o'qitish kompyuter to'plangan tajribaga asoslangan holda mustaqil ravishda qaror qabul qilishi mumkin. Shu bilan birga, u axborotni dastlabki qayta ishlash, qayta tayyorlash, baholash va prognozlashni ham amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun bojaxona faoliyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan sun'iy intellektdan foydalanishning umumlashtirilgan sxemasini quyidagicha taqdim etish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Sun'iy intellektni qo'llashning umumlashtirilgan sxemasi

Taklif etilayotgan sxemada elektron shakldagi tovarlar uchun deklaratsiyalar oqimi bo'lishi mumkin bo'lgan kirish ma'lumotlar oqimi boshqariladigan hujjatning kirish tasvirini yaratish moduliga kiradi. Agar hujjatda ba'zi ma'lumotlar yetishmayotgan bo'lsa, ushbu modul yetishmayotgan ma'lumotlarni ma'lum ishonchli manbalardan so'raydi. Bunday holda, robot jarayonlarini avtomatlashtirish tizimi – RPA (Robotic Process Automation – robotlar turli xil kompyuter tizimlari, dasturlari va ilovalarida inson harakatlarini simulyatsiya

qiladigan avtomatlashtirish usuli) qo'llanilishi mumkin. Boshqariladigan hujjatning yaratilgan joriy tasviri qaror qabul qilish sun'iy intellekt moduliga kiradi, u kiruvchi hujjat tasvirining ko'p mezonli tahlilini o'tkazadi va uni sinflardan biriga tasniflaydi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida maxsus avtotransport vositalarini TIF TN bo'yicha tasniflashning texnik yechimlari ishlab chiqildi. Bu bojxona faoliyati tezkorligi va ish unumdarligini oshirish, inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Bobda shuningdek, Matlab muhitida Neural Network Toolbox paketidan foydalanib maxsus avtotransport vositalarini TIF TN bo'yicha tasniflash jarayonning neyron-to'rli modeli ishlab chiqilgan. Aprior ma'lumotlarning yetarli emasligi va parametrik noaniqlik sharoitida TN haqidagi ma'lumotlarning ishonchlilagini oshirish algoritmi ishlab chiqilgan.

Keltirilgan algoritmlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bojxona organlari mas'ul shaxslari ishtirokisiz avtomatik rejimda nazoratni amalga oshirish imkonini beradi.


Dissertatsiyaning "**Ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish jarayonlariga joriy etish**" deb nomlangan to'rtinch bobida BYuDni rasmiylashtirish jarayonlarining avtomatlashtirilish bosqichlari, avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini BYuDni rasmiylashtirish jarayoniga tadbiq qilinishi, avtomatlashtirilgan maxsus avtotransport vositalarining tasniflash tizimining iqtisodiy samaradorligi natijalari keltirilgan.

Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvni jarayonlarini tezlashtirish va ularda shaffoflikka erishish, tovarlarni to'g'ri deklaratsiyalash hamda bojxona to'lovlarini davlat byudjetiga to'liq undirilishini ta'minlashdir. Tadqiqot ishi natijasida rasmiylashtirilayotgan tovari (transport vositasi) tasniflash tizimi uchun qo'shimcha 9 ta (1. Bajaradigan vazifasi, 2. Vin raqami, 3. Dvigatel raqami, 4. Kuzov raqami. 5. Ekologik toifasi, 6. Ishlab chiqarilgan davlat, 7. Ot kuchi. 8. O'rindiklar soni, 9. Transport vositasining 4 tomonlama umumiy ko'rinishi) zaruriy xavf guruhi texnik parametrlari tavsija etildi.

8704 TIF TNning boshqa podsubpozitsiyasi uchun ishlab chiqilgan hamda taklif etilgan tizimni ishlash holatini tekshirish bo'yicha tadqiqot uchun ma'lumotlar bazasidan transport vositasini texnik parametrlarini kiritish va tizim ma'lumotlarini saralash hamda import orqali rasmiylashtirilayotgan transport vositasi tegishli TIF TN kodiga mosligini ko'rsatadi. 8704 TIF TN tegishli transport vositasi texnik parametrlarini tizimli ketma-ketlikda belgilangan meyorlarga muvofiq aniq amalga oshirishni belgilaydi (5-rasm).

Shuningdek, 8704 TIF TN tegishli transport vositasi texnik parametrlari asosida subpozitsiyasini aniqlash tizimi hamda tovar tavsifining avtomatlashtirilgan modeli ishlab chiqildi (6-rasm).

Ishlab chiqilgan model asosida 8704 TIF TN tovar pozitsiyasidagi maxsus avtotransport vositalarini TN asosida avtomatlashtirilgan tasniflashning dasturi yaratildi. Ushbu dastur TIF TN 8704 tovar pozitsiyasidagi maxsus avtotransport vositalarini tezkor va aniq tasniflashga imkon berdi (7-rasm).




5 – rasm. 8704 TIF TN tegishli transport vositasi texnik parametrlari asosida subpozitsiyasini aniqlash tizimi

Xavf guruhi ma'lumotlari oynasida transport vositasining VIN kodini kiritish orqali dunyo miqyosida ishlab chiqaruvchi zavod va korxonalar ma'lumotlari bilan solishtiradi hamda TIF ishtirokchisi va bojxona organlari xodimlariga qulaylik beradi.

Indentifikatsiyalash guruhi ma'lumotlari oynasidagi yuk tashish uchun mo'ljallangan standart guvohnomasi qismida maxsus transport vositasiga tegishli bo'lgan hujjatlar hamda fotosuratlar qismida maxsus transport vositasini 4 tomonlama suratga olinishi, kelgusida maxsus transport vositasiga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish hamda hujjatlarga qo'shimcha ishlov berishlarning oldini olish va aniqlash imkonini beradi.

Majburiy texnik parametrlar guruhi oynasida 8704 TIF TN tovar pozitsiyasidagi maxsus avtotransport vositalarini majburiy texnik parametrlari, ya'ni dvigatelning turi, hajmi, transport vositasinig to'la massasi, ot kuchi, o'rindiqlar soni hamda yuk ko'tarish og'irligi kiritiladi.

Bobda shuningdek, BYuDni rasmiylashtirilish jarayonlarining avtomatlashtirilishi bojxona faoliyati tezkorligi va ish unumdorligini oshirish, inson omili aralashuvini cheklash, tovarlarning mukammal bojxona ko'rigidan o'tkazish, faoliyatni ketma-ketlikda samarali amalga oshirish hamda insonlarning ijtimoiy hayotdagi ehtiyojlarini ortishi natijasida tovarlarning tashqi va ichki dizaynlariga o'zgartirishlar kiritilishi sababli TIF TN kodlarni tasniflashda uchrayotgan muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.



6-rasm. TIF TN 8704 tovar pozitsiyasi transport vositalarining texnik parametrlari asosan tovar tavsifining avtomatlashtirilgan modeli

| Хавф гурухига киравчи параметрлар | Идентификациялаш гурухига киравчи параметрлар | Мажбурий техник гурухига киравчи параметрлар |
|--|---|---|
| Транспорт воситаси номи <input type="text" value="Танланг"/> x v | Транспорт воситаси тоифаси <input type="text" value="Танланг"/> x v | Экологик тоифаси <input type="text" value="Танланг"/> x v |
| Бажарадиган вазифаси <input type="text" value="Танланг"/> x v | VIN рақами <input type="text"/> x v | |
| Tekshirish | | |
| “БЮДнинг 33-графаси товарнинг ТИФ ТН коди:” <input type="text"/> | | |

7-rasm. Xavf guruhiga kiruvchi ma'lumotlar oynasi

XULOSA

Maxsus avtovositalarini TN asosida avtomatlashtirilgan tasniflash tizimini ishlab chiqish natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan:

1. TIF TNda L, M va N toifalardagi maxsus avtovositalarining tegishli texnik parametrlari va xususiyatlari, ularning tasnifi hamda belgilanish tartiblari ishlab chiqildi.

2. 8704 tovar pozitsiyasiga tegishli maxsus transport vositalarining texnik va o‘ziga xos bo‘lgan parametrlari asosida TIF TNga muvofiq belgilash ketma-ketlik strukturasi hamda tasnifi sxemasi ishlab chiqildi.

3. Maxsus avtovositasining texnik parametrlari va boshqa meyoriy hujjatlaridagi tegishli ma’lumotlarini rasmiylashtirilish ketma-ketlikda BYuDning tegishli 31, 33, 35, 38, 41, 44, 47-grafalarida uzviy zanjir to‘ri hosil qilinishi tartibi ishlab chiqildi.

4. Axborotning muhim belgilarini aniqlashda atama-belgilarning paydo bo‘lishining aprior ehtimoli haqidagi ma’lumotlarga asoslangan lingvostatistik usullar asosida TIF TN kodini avtomatik aniqlash hamda makroo‘rtacha va mikroo‘rtacha usullari asosida obyektning tasniflash sifatini baholashning matematik va algoritmik ta’minoti ishlab chiqilgan bo‘lib, bu TIF TN kodini identifikatsiyalashning tavsiya etilgan ta’minoti TIF ishtirokchilarining tovarlarga deklaratsiyani to‘ldirish ishlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

5. Bojxona faoliyati tezkorligi va ish unumdorligini oshirish, inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolarni bartaraf etish imkonini beruvchi, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida maxsus avtovositalarini TIF TN bo‘yicha tasniflashning texnik yechimlari ishlab chiqildi.

6. BYuDni rasmiylashtirilish jarayonlarining avtomatlashtirilishi bojxona faoliyati tezkorligi va ish unumdorligini oshirish, inson omili aralashuvini cheklash, tovarlarning mukammal bojxona ko‘rigidan o‘tkazish, faoliyatni ketma-ketlikda samarali amalga oshirish, shuningdek, insonlarning ijtimoiy hayotdagи ehtiyojlarini ortishi natijasida tovarlarning tashqi va ichki dizaynlariga o‘zgartirishlar kiritilishi sababli TIF TN kodlarni tasniflashda uchrayotgan muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

7. TIF TN tegishli maxsus avtovositalarning texnik parametrlari hamda xavf guruhi texnik parametrlari asosida tovarlar tavsifining avtomatlashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Ushbu model asosida avtomatlashtirilgan tasniflashning samarali ekspress usullari sifatida 3 bosqichli toifalash dasturi yaratildi.

8. Bojxona to‘lovlaridan qochish maqsadida tovarlarni turli noqonuniy yo‘llar hamda soxta hujjatlarni bilan olib kirilishini oldini olish bo‘yicha bojxona organlari mutaxassislari tomonidan bojxona nazorati ko‘rgi jarayonida xato va kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, belgilangan to‘lovlarini aniq undirishda organoleptik va axborot-tahliliy usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

ХАМРОЕВ ГАЙРАТ РУСТАМОВИЧ

**РАЗРАБОТКА АВТОМАТИЗИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ
КЛАССИФИКАЦИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ
НА ОСНОВЕ ТОВАРНОЙ НОМЕНКЛАТУРЫ**

**02.00.09 – Химия товаров
05.01.08 – Автоматизация и управление технологическими
процессами и производствами (технические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистана за номером B2023.4.PhD/T2847

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.andu.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz.

Научные руководители:

Каримкулов Курбонкул Мавланкулович
доктор технических наук, профессор

Севинов Жасур Усмонович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдуганиев Бахтиёр Ёрмакаматович
доктор химических наук, профессор

Темербекова Барнохон Маратовна
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита состоится «17» 10 2024 год. в «10⁰⁰ часов на заседании Разового Научного совета на основе научного совета DSc03/29.10.2021.K/T.60.05 при Андижанском государственном университете по адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (+99874) 223-88-14, факс: (+99874) 223-88-30; e-mail: abshax@mail.ru)

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета за №_____, с которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре. Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (+99877) 223-88-30.

Автореферат диссертации разослан «5» 10 2024 года.

(Реестр за №«40» от «5» 10 2024 года).



Ш.Х.Абдуллоев

Заместитель Председателя разового Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.х.н., профессор

М.М.Муминжонов

Ученый секретарь разового Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.х.н., доцент

М.М.Хожиматов

Председатель разового Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последнее время в связи с выпуском новых типов специальных автомобилей, изменением их функций, внешнего и внутреннего оформления особое внимание уделяется их свободному движению в международных экономических отношениях и правовой охране путём определения соответствующего кода продукции. Одним из важных вопросов в этой области является разработка системы классификации характеристик продукции на основе номенклатуры товаров внешнеэкономической деятельности (ТН ВЭД) и автоматизация этого процесса. В связи с этим важна разработка эффективных методов и алгоритмов классификации и идентификации технических параметров специальной автомобильной техники, установки дополнительного специального оборудования и идентификации соответствующего кода товара для таможенных целей на основе ТН ВЭД. В настоящее время в мире назрела необходимость разработки автоматизированной классификации специальной автомобильной техники на основе товарной номенклатуры (ТН).

В настоящее время в мире проводятся научные исследования, направленные на разработку алгоритма автоматизированной классификации специальных автотранспортных средств на основе ТН и их адаптацию к процессам таможенного контроля. При этом актуальным является решение проблем повышения достоверности, определения размеров экономических рисков и совершенствования методов обеспечения баланса таможенного контроля с использованием анализа данных. В этом контексте особое внимание уделяется исследованиям по разработке математического и алгоритмического обеспечения классификации специальных автотранспортных средств на основе ТН, системы автоматизированной классификации специальных автотранспортных средств по ТН ВЭД на основе технологий искусственного интеллекта.

В республике большое значение придаётся упрощению таможенных процедур пропуска автотранспортных средств через таможенную границу, принимаются масштабные меры по созданию благоприятных условий для международной торговли, системному упрощению процесса таможенного оформления грузов участников внешнеэкономической деятельности (ВЭД). В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы, среди прочего, поставлены задачи, связанные с «Применением приемлемых таможенных ставок к товарам, пользующимся повышенным спросом на внутреннем рынке, при ввозе их из-за границы исходя из ситуации на мировых рынках»¹. Реализация этих задач, в том числе удобна для участников ВЭД. Одним из важных вопросов является автоматизация процесса электронного таможенного оформления товаров и разработка методов и алгоритмов правильной и точной классификации характеристик товаров на основе ТН ВЭД с целью предоставлять услуги быстрыми способами.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан, № УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы”

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени реализации задач, поставленных в Указах Президента УП-6005 Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2020 года «О реформировании таможенного управления и совершенствовании деятельности Государственной таможенной службы Республики Узбекистан», УП-60 от 28 января 2022 года «О развитии Стратегия нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и Постановлении № ПП-3983 от 25 октября 2018 года «О мерах по ускорению развития химической промышленности в Республике Узбекистан» и другие нормативные правовые документы, связанные с данной деятельностью.

